

### 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,  
mlrd. so'm

**29 436,5**

YAHM o'sish  
sur'ati

**105,2 %**

YAHM deflyator  
indeksi

**113,6 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabrda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 436,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,9 % ga yetdi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>24 648,5</b>	<b>29 436,5</b>	<b>105,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	23 976,0	28 885,8	105,0
mahsulotlarga sof soliqlar	672,5	550,7	112,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>23 976,0</b>	<b>28 885,8</b>	<b>105,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>11 311,6</b>	<b>14 071,5</b>	<b>106,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 682,5</b>	<b>4 220,8</b>	<b>105,2</b>
sanoat	1 644,5	1 958,3	105,0
qurilish	2 038,0	2 262,5	105,3
<b>xizmatlar</b>	<b>8 981,9</b>	<b>10 593,5</b>	<b>103,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 101,3	2 439,0	104,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 093,6	1 350,2	110,3
boshqa xizmat tarmoqlari	5 787,0	6 804,3	101,3




## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 392,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	1,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>47,2</b>	<b>48,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15,4</b>	<b>14,6</b>
sanoat	6,9	6,8
qurilish	8,5	7,8
<b>xizmatlar</b>	<b>37,4</b>	<b>36,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,8	8,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,7
boshqa xizmat tarmoqlari	24,0	23,6

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 47,2%

Sanoat 6,9%

Qurilish 8,5%

Xizmatlar 37,4%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 48,7%

Sanoat 6,8%

Qurilish 7,8%

Xizmatlar 36,7%

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 48,7 % ni, sanoat tarmog'i 6,8 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 36,7 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM  
o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga  
nisbatan % da)

YAHM



5,2

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi



2,9

Sanoat



0,3

Qurilish



0,4

Xizmatlar



1,2

Mahsulotlarga  
sof soliqlar




0,3

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,9 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrda –0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.) ga ko'paydi.



## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabrida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 48,7 %), sanoatda – 105,0 % (6,8 %), qurilishda – 105,3 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 103,0 % ni (36,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 104,2 % (8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,3 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,3 % dan (23,6 %) iborat bo'ldi.




## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi




Sanoat




2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 116,9 % va xizmatlar sohasida – 114,5 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar





**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning  
hajmi va YAHMdagi ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)

	<b>mlrd. so‘m</b>	<b>ulushi, % da</b>
<b>2022- yil</b>	<b>18 309,8</b>	<b>76,4</b>
<b>2023- yil</b>	<b>22 168,0</b>	<b>76,7</b>

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 22 168,0 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 18 309,8 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 76,7 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 76,4 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

